

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE
OLIY TA'LIM MUASSASASI

"TASDIQLAYMAN"

University of Business and
Science

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor D. Xolmatov



2025-yil

08.00.13 – «MENEJMENT» ixtisosligi bo'yicha malakaviy imtihon
DASTURI

Annotatsiya:

Dastur 08.00.13 – «Menejment» ixtisosligiga kiruvchilar uchun «Menejment» fani asosida tuzildi. Ushbu dasturda menejmentning nazariy asoslari, boshqaruv texnologiyalari, tashkiliy tuzilmalar, strategik boshqaruv, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar va boshqaruv samaradorligini oshirish yo'llari kabi mavzular qamrab olingan.

Tuzuvchilar:

Levakov.I.N.	–	UBS, Menejment kafedrası mudiri, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.
Axmedov.A.Yu.	–	UBS, Menejment kafedrası dotsent, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ibragimova M.M	–	UBS, Yashil iqtisodiyot kafedrası dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Dastur University of Business and Science institutining 2025-yil 31.10 dagi 3 -sonli Kengash yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar, xususan, bozor munosabatlariga moslashish va global iqtisodiyotga integratsiyalashuv jarayonlari jadal sur'atlarda olib borilmoqda. Ushbu sharoitda menejment sohasi iqtisodiyotning turli tarmoqlarida samarali boshqaruvni ta'minlash, raqobatbardoshlikni oshirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etishda muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida menejment va boshqaruv tizimining samaradorligi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi bosqichda xizmat ko'rsatish va servis sohasining milliy iqtisodiyotdagi o'rni yildan-yilga ortib borayotgani, bu jarayonni boshqarishda zamonaviy menejment yondashuvlarining rolini yanada kuchaytirishni talab etadi. Mazkur sohada bozor iqtisodiyoti sharoitlariga mos boshqaruv tizimlarini joriy etish, tashkiliy samaradorlikni oshirish, hamda xizmat sifati va innovatsion menejment tamoyillarini qo'llash bugungi kun talabi hisoblanadi. Shu bois, xizmat ko'rsatish tizimini kompleks rivojlantirish, strategik boshqaruv usullarini takomillashtirish va malakali menejerlarni tayyorlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Xulosa qilib aytganda, xizmat ko'rsatish sohasining barqaror o'sishini ta'minlash — bu, eng avvalo, menejment nazariyasini amaliyotga samarali tatbiq etish, innovatsion fikrlaydigan rahbarlarni shakllantirish va boshqaruv sifatini yangi bosqichga ko'tarish bilan chambarchas bog'liqdir.

08.00.13 – Menejment ixtisosligining asosiy vazifasi boshqaruv faoliyatining nazariy va amaliy asoslarini, uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi o'rni va ahamiyatini, tashkilot va korxonalarda menejment tizimini samarali tashkil etish, boshqaruvning maqsad va tamoyillarini, iqtisodiy, tashkiliy va ijtimoiy samaradorligini chuqur o'rganishdan iboratdir. Fan doirasida boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlari, strategik rejalashtirish, tashkiliy tuzilmalarni shakllantirish, inson resurslarini boshqarish, liderlik va motivatsiya, innovatsion menejment, loyihalarni boshqarish kabi masalalar tahlil qilinadi. Mazkur maqsadlarga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va boshqaruv qarorlarini tahliliy asosda qabul qilish malakasi bilan qurollantiradi. Shuningdek, ularda boshqaruv jarayonlariga ilmiy yondashuv, strategik fikrlash, rahbarlik kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Bunda ilg'or pedagogik texnologiyalar, amaliy mashg'ulotlar va innovatsion o'qitish metodlaridan foydalaniladi.

08.00.13 – Menejment ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kiruvchi da'vogarlar uchun “Menejment nazariyasi va amaliyoti”, “Buxgalteriya hisobi”, “Strategik menejment va korporativ boshqaruv”, “Iqtisodiy tahlil va audit”, “Moliya va soliqlar” hamda “Inson resurslarini boshqarish va liderlik” fanlaridan savollar bazasi shakllantirilgan. Bu fanlar o'z negizida qamrab oladigan ma'lumotlar quyida batafsil keltirilgan.

Menejment fani bo'yicha:

Menejment fanining nazariy asoslari va mohiyati, boshqaruv faoliyatining rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy menejment maktablari. Menejmentning funksiyalari, tamoyillari va usullari. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmalari, ularning turlari va samaradorligini oshirish yo'llari. Strategik menejment nazariyasi, strategik rejalashtirish, tashqi va ichki muhit tahlili, SWOT, PEST va boshqa modellarni qo'llash.

Inson resurslarini boshqarish, rahbarlik va motivatsiya tizimlari, xodimlar faoliyatini baholash hamda ularni rag'batlantirish mexanizmlari. Liderlik nazariyalari va rahbarlik uslublari, jamoada kommunikatsiya, nizolarni boshqarish va qaror qabul qilish jarayonlari. Innovatsion menejment va o'zgarishlarni boshqarish, korxonalarda raqamli transformatsiya jarayonlarini joriy etish. Korxona faoliyati samaradorligini oshirishda menejmentning roli, iqtisodiy, tashkiliy va ijtimoiy samaradorlik ko'rsatkichlari.

Loyihalarni boshqarish, vaqt va resurslarni rejalashtirish, risklarni tahlil qilish, monitoring va nazorat tizimlarini tashkil etish. Raqobatbardosh boshqaruv va menejmentda innovatsion yondashuvlardan foydalanish. Menejmentda sinergetik yondashuv, klaster asosida boshqarish va korporativ boshqaruv tizimlarini rivojlantirish imkoniyatlari. Biznes muhiti va raqobatni tahlil qilish, menejment qarorlarida axborot tizimlari va sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari.

Tashkilot madaniyati, etik tamoyillar va barqaror rivojlanish strategiyasida menejmentning o'rni. Shu bilan birga, ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm, xizmat ko'rsatish va sanoat korxonalarida boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlari ham o'rganiladi..

Menejment fanining mazmuni, predmeti va vazifalari

"Menejment nazariyasi", "Menejer" va "Biznesmen" tushunchalarining mohiyati. Faning predmeti va izlanish uslublari. Faning mohiyati, maqsad va vazifalari. Menejment asoslarini o'rganishning dolzarbligi. Menejment konsepsiyalari va ularning asoschilari. Boshqaruv ilmining o'ziga xos xususiyatlari. Boshqaruvning kelajakka yo'naltirilganligi, ob'ektiv zarurati. Menejmentning boshqa fan sohalari bilan aloqadorligi. O'zbekistonda iqtisodiyot tarkibini tubdan o'zgartirish, uni diversifikatsiyalash va modernizatsiya qilish sharoitlarida menejment rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.

Boshqaruv tafakkurining evolyutsiyasi

Qadimgi amaliyot – yangi fan. Boshqaruvning fan sohasiga aylanishi va evolyutsiyasi. Boshqaruvga tizimlashtirilgan yondashuvlar. Jarayonli, tartibli va vaziyatli yondashuv. Turli menejment maktablari: ilmiy boshqaruv (1885–1920), klassik yoki ma'muriy maktab (1920–1950), insoniy munosabatlar maktabi (1930–1950), boshqaruv fani yoki miqdoriy yondashuv (1950–hozirgi davr). Axloq fanlari rivojlanish maktabi, operatsiyalar tadqiqoti va modellar, miqdoriy

yondashuvning ta'siri. Menejment nazariyasi asoschilari: F. Teylor, G. Ford, J. Gilberts, Emerson, A. Fayol va boshqalar. Iqtisodiy boshqaruv tizimining rivojlanishi, menejment nazariyasi va amaliyotining shakllanish bosqichlari hamda O'zbekistonda menejment rivojlanishining o'ziga xos jihatlari.

Menejment qonuniyatlari va tamoyillari

Umumiy falsafiy dialektik qonunlar, boshqaruv tizimidagi bozor qonunlari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida menejment qonunlari va tamoyillarining ahamiyati. Boshqarish va ishlab chiqarishning mosligi qonuni, boshqarish funksiyalarini markazlashtirishning nisbiy optimalligi qonuni. Menejment tamoyillari va ularning mohiyati, amaliyotdagi qo'llanilishi.

Tashkilotlar va ularni boshqarish. Menejment texnologiyasi

Tashkilot tushunchasi, turlari va tavsifi. Rasmi va norasmiy tashkilotlar. Tashkilotning hayotiy davri, ichki va tashqi muhiti, ularning o'zgaruvchanligi. Tashkilot faoliyatini turkumlash hamda zamonaviy tashkilot turlarining paydo bo'lishi. Boshqaruv jarayoni va uning xususiyatlari. Menejment texnologiyalari: maqsadlar bo'yicha boshqarish, natijalar bo'yicha boshqarish, ehtiyoj va manfaatlarni hisobga olish asosida boshqarish. Maxsus vaziyatlarda boshqarish, faoliyatni faollashtirish asosida boshqarish, tizimli tekshiruvlar va farmoyishlarga asoslangan boshqaruv. Maqsadlar shajarasi va maqsadli boshqaruv usuli.

Menejment funksiyalari. Tashkiliy tuzilma

Boshqaruv vazifalari va ularning turlari. Menejment funksiyalari: rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat va motivatsiya. Nazorat funksiyasining jarayoni, harakat jihatlari va samaradorligi. Motivatsiya nazariyalari: A. Maslou bo'yicha ehtiyojlar iyerarxiyasi, jarayonli nazariyalar, Porter-Loulor modeli. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmalari: chiziqli, funksional, chiziqli-shtabli, matritsali, divizional, loyihali, dasturli va mintaqaviy turlari. Mehnatning gorizontal va vertikal bo'linishi. Tashkiliy tuzilmani loyihalash va takomillashtirish.

Menejment usullari. Zamonaviy menejer

Menejment usullarining turlari: iqtisodiy, tashkiliy-farmoyish va ijtimoiy-ruhiy usullar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy usullarning ahamiyati. Tashkiliy-farmoyish usullarining boshqaruvdagi o'rni va tabaqalanishi. Menejmentning axloqiy va ruhiy jihatlari. Menejer tushunchasi, uning darajalari, vazifalari va mehnat faoliyati. Menejer mehnatini tashkil etish, samaradorligini baholash, ish uslubi, liderlik fazilatlar. Menejer-liderning kasbiy modeli va reyting tizimi.

Tashkilot madaniyati va rahbarning roli. Xodimlarni boshqarish

Menejment madaniyati va uning elementlari. Rahbarlik uslublari, rahbar fazilatlar, menejer etikasining ahamiyati. Menejning imidji, ishbilarmonlik etikasining tamoyillari va nutq madaniyati. Xodimlarni boshqarish tizimi va tamoyillari. Tanlash, baholash, ijtimoiy munosabatlarni boshqarish. Karerani boshqarish, uning bosqichlari va turlari. Jamoa, guruhlar, ularning shakllanishi va ahamiyati. Hokimiyat, ta'sir va xarizma tushunchalari.

Nizo va stressni boshqarish. Boshqaruv vakolatlari

Nizolar turlari, sabablari va boshqaruv usullari. Shaxsiy, shaxslararo, guruh ichidagi va guruhlararo nizolar. Nizolarni hal etish va stressni boshqarish usullari. Vakolat va mas'uliyat tushunchalari, ularning zaruriyati. Vakolatlarni uzatish va boshqaruv darajalari bo'yicha taqsimlash.

Menejmentda axborot va kommunikatsiya. Menejment qarorlarini qabul qilish. Menejment tizimida tadbirkorlik va biznes

Axborot tizimi, kommunikatsion jarayonlar, tashkiliy va norasmiy kommunikatsiyalar, bo'limlararo aloqa va tashqi muhit bilan munosabatlar. Menejment qarorlarining mohiyati, turlari, bosqichlari va ularga qo'yiladigan talablar. Qarorlarni optimallashtirish usullari va bajarilishini nazorat qilish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik va biznes tushunchalari. Korxona – iqtisodiyot tizimi sifatida. Tadbirkorlik turlari. Biznes-reja tuzilishi, tayyorlanishi, bozor, marketing, moliyaviy va ishlab chiqarish rejalari. Biznes-rejani bajarish ustidan nazorat.

Strategiyani boshqarish. Ijtimoiy menejment. Menejment samaradorligi

Strategiya tushunchasi, mazmuni, strategik rejalashtirish bosqichlari. Strategik boshqaruvning besh vazifasi. Missiya, maqsadlar, strategiya turlari: korporativ, ishbop, funksional va amaliy strategiyalar. Strategiya yaratishda raqobat ustunligini ta'minlash mezonlari. Bozor sharoitida ijtimoiy siyosat, ijtimoiy dasturlar va aholini himoya qilish yo'nalishlari. Mehnat bozori, inson omili, xulq omillari tizimi. Xotoron tajribalari va ularning menejment nazariyasiga ta'siri. Chet el tajribasi asosida ijtimoiy muammolarni hal etish yo'llari. Boshqaruv samaradorligi – iqtisodiy kategoriya sifatida. Iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik mezonlari, ko'rsatkichlari, ularni baholash usullari. Menejment samaradorligini oshirish omillari va loyihalarning iqtisodiy asoslanishi.

UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE TAYANCH
DOKTORANTURA IXTISOSLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI
UCHUN MUTAXASSISLIK FANLARDAN TALABGORLARNING
BILIMLARINI BAHOLASH MEZONI

Sinov topshirish shakli	Yozma / og'zaki
Ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Savollar soni	5
Har bir savol uchun belgilangan ball	20
Eng yuqori ball	100

Malakaviy imtihon sinovi yozma (**DsC uchun og'zaki**) ravishda o'tkazilishi belgilangan bo'lib, 100 ballik mezon asosida baholanadi.

Har qaysi savolga javobi quyidagicha baholanadi:

Har bir savol uchun ball	Javobga qo'yiladigan talablar
86-100	Qo'yilgan savolga to'liq javob bergan. Nazariy jihatlarini yoritishda xatolik va chalkashlikka yo'l qo'yilmagan. Mustaqil ravishda mushohada yuritib bayon etilgan. Amaliy misollar bilan asoslab bayon etilgan. Xulosani to'g'ri shakllantirgan. Fikrlar erkin bayon etilgan.
71-85	Savolning mohiyatini tushungan. Javobni yoritib bera olgan. Amaliy misollar keltirilgan. Tasavvurga ega. Qisqacha xulosa bergan. Fikrlarni sodda bayon etgan.
55-70	Savol mohiyatini tushungan. Javob yoritilgan, qisqa shaklda. Misollar bilan asoslanmagan. Xulosa qilingan.
0-54	Savolning ayrim elementlarigina yoritilgan, yoki umuman yoritilmagan. Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas.

08.00.13 – “MENEJMENT” IXTISOSLIGI BO‘YICHA MUTAXASSISLIK SAVOLLAR NAMUNASI

1. 2022-2026 yillar davomida menejment sohasini rivojlantirish davlat dasturi va uning asosiy parametrlari
2. Tashkiliy tuzilmalar holatini, ularning samaradorligini va optimallashtirish ko‘rsatkichlarini ifodalovchi indikatorlar va ularni aniqlash yo‘llari
3. Tashkiliy tuzilmalarni baholash usullari
4. Axborot-kommunikatsiya menejmenti, uning holati va rivojlantirish muammolari
5. Korxonalarda menejment tizimining hozirgi holati va uni rivojlantirish muammolari
6. Menejment sohasini yanada kengaytirish, korxona samaradorligini oshirishga yo‘naltirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar
7. Bozor munosabatlari sharoitida menejment tizimlarida samaradorlikni oshirishning konseptual yo‘nalishlari
8. Davlatning menejment siyosatini amalga oshirish mexanizmlari
9. Ilmiy tadqiqot ishda sotsiologik so‘rovnoma tuzish va amalga oshirish bosqichlari
10. Investitsiya loyihalari menejmentini oshirish imkoniyatlari
11. Innovatsiya tushunchasi, tasnifi va ularning korxona va tashkilotlar menejmentidagi o‘rni
12. Menejment korxonalarining asosiy vazifalari
13. Prognoz va rejaning o‘zaro bog‘liqligi
14. Prognoz ko‘rsatkichlarini asoslash usullari
15. Raqobat sharoitida bahoni shakllantirishning metodologik asoslari
16. Savdo va menejment xizmatlari holati va rivojlanish muammolari
17. Menejment tushunchasi, uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari
18. Menejment tushunchasi, uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari
19. Strategik menejment bozoriga ta’sir qiluvchi asosiy omillar
20. Menejmentni rivojlantirishda strategik loyihalarni loyihalashtirish va texnologik xaritalarni tuzish jarayonlari
21. Menejment bozori segmentlari
22. Strategik va operatsion menejment vazifalari mazmuni va rivojlanish istiqbollari
23. Menejment bozorida marketing strategiyasi
24. Menejment bozorining mohiyati, funksiyalari va tarkibi
25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.10.2020 yildagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida belgilangan vazifalar

26. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagi PF-5787-son “O‘zbekiston Respublikasida menejment sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida belgilangan vazifalar

27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 31 yanvardagi PF-5930-son “Davlat menejmenti tizimini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida belgilangan vazifalar

28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida belgilangan vazifalar

29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturining 35 maqsadida belgilangan vazifalar

30. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturining 29 maqsadida belgilangan vazifalar

31. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturining 35 maqsadida belgilangan vazifalar

32. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturining 9 maqsadida belgilangan vazifalar

33. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2021 yildagi PQ-5113-son “Menejment sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan vazifalar

34. O‘zbekiston Respublikasida menejment sohasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va xususiyatlari

35. O‘zbekiston Respublikasida menejment bozorining holati va uning muammolari

36. O‘zbekistonda menejment sohasini rivojlantirish istiqbollari

37. Menejment va boshqaruv korxonalarida fan-texnika taraqqiyotini rejalashtirish, ishlab chiqarishning texnik-texnologik darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar

38. Menejment sohasida samaradorlikning mazmuni, mohiyati va ahamiyati

39. Menejment sohasidagi franshizing korxonalari

40. Menejment sohasini modernizatsiya qilishda innovatsiyalarning roli va o‘rni

41. Menejment sohasini rivojlantirish – korxona samaradorligini va ishlab chiqarish sifatini oshirishning muhim yo‘nalishi sifatida

42. Menejment sohasining iqtisodiyotda tutgan o‘rni
43. Menejment sohasining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o‘rni
44. Menejment korxonalarida aylanma mablag‘lar samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar va ularni aniqlash yo‘llari
45. Menejment korxonalarida tuziladigan biznes-rejaning vazifalari va funksiyalari
46. Menejment korxonalarida asosiy vositalar amortizatsiyasi va uni hisoblash usuli
47. Menejment sohasi korxona va tashkilotlarida mahsulotlar, ishlar, xizmatlar tannarxiga kiruvchi xarajatlar tarkibi, ularni ifodalovchi ko‘rsatkichlar, aniqlash va tahlil qilish yo‘llari
48. Menejment sohasidagi ishlab chiqarish xarajatlarining mazmuni va tavsifi
49. Menejment turlarini kengaytirish va sifatini ta’minlashdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari
50. Raqobat tushunchasi va uning turlari. Menejment sohasida raqobatning vazifalari va narx belgilashdagi ahamiyati

TAVSIYA ETILAYOTGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2020 yil 25 yanvar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli Farmoni. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 8 fevral.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-sonli qarori.
7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016 – 48 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
9. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
10. Yo‘ldoshev N.Q., Nabokov V.I. Menejment nazariyasi. Darslik. – T.: TDIU, 2013. 433 b.
11. Yo‘ldoshev N.Q. Strategik menejment. Darslik. – T.: TDIU, 2013. - 230 b.
12. Qosimova D.S. Menejment nazariyasi. Darslik. – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2011. - 335 b.

13. Ziyavitdinova N.M., Xayitov Sh.N., O‘rinov Y.M. Menejment. Darslik. T.: “Tafakkur bo‘stoni”, 2019.
14. Gluxov V.V. Menedjment: Uchebnik dlya vuzov. 3-e izd. – SPb.: Piter, 2008.
15. Vixanskiy O.S., Naumov A.I. Menedjment: Uchebnik dlya vuzov po ekon. spets. i napravl. – Tret’e izd. – M.: Gardarika, 2008.
16. Gerchikova I.N. Menedjment: Uchebnik. – 4-e izd., pererab. i dop. – M.: YUNITI-DANA, 2012.
17. Daft R. Menedjment. 6-e izd./ Per s angl. – SPb.: Piter, 2007.
18. Kravchenko A.I. Istoriya menedjmenta: Uchebnoye posobiye dlya vuzov. – 7-e izd. – M.: Akademicheskiiy Proyekt; Alma Mater, 2012.
19. Meskon M.X., Albert M., Xedouri F. Osnovy menedjmenta: Per. s angl. – M.: Delo, 2012.
20. Nizamov A.B., Rajabova S.F. Menejment. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2006, 168 b.
21. Nizamov A.B. Ta’lim menejmenti va rahbarlik mahorati. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent, “Reliable print”, 2016, 129 b.
22. Osnovy menedjmenta: uchebnoye posobiye/ L.V. Plaxova, T.M. Anurina, S.A. Legostayeva i dr. – M.: KNORUS, 2007.
23. Semenov A.K., Nabokov V.I. Osnovy menedjmenta: – M.: ITK “Dashkov i K”, 2010.
24. Fatxutdinov R.A. Strategicheskiiy menedjment – M.: AO “Biznes-shkola “Intel-Sintez”, 2008.
25. Gulin V.N. Informatsionnyy menedjment: Uchebnyy kompleks. - Minsk: Sovrem. shk., 2009.
26. Lamben J.J., Chumpitas R., Shuling I. Menedjment, orientirovanny na rynok. 2-e izd. / Per. s angl. Pod. red. V.B. Kopchanova. - SPb.: Piter, 2008.
27. Gluxov V.V. Menedjment: Uchebnik. 3-e izd. - SPb: Piter, 2009.
28. Yermakov V.P., Makiyev Z.G. Menedjment dlya studentov vuzov. – Izd. 5-e. - Rostov n/D: Feniks, 2008.
29. Konoplev S.P., Konopleva V.S. Menedjment prodaj: Ucheb. posob. – M.: INFRA-M, 2009.

